

## **Asosiy vazifa va funksiyalari**

1. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish hamda Fuqaro muhofazasi bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish Davlat tizimi va Fuqaro muhofazasi faoliyatini nazorat qilish va muvofiqlashtirish tadbirlarini rejalashtiradi va ta'minlaydi;

Toshqinlar va sel oqimlarini xavfsiz o'tkazib yuborishni ta'minlash, qor ko'chishi va ko'chkilar xavfini kamaytirish bo'yicha Hukumat komissiyasi faoliyatini tashkil etishni ta'minlaydi;

Kichik hajmli kemalar inspeksiyasi Respublika xududidagi suv havzalarida kichik hajmli kemalar va ular turadigan bazalardan (inshootlar) xavfsiz foydalanish sohasida davlat nazoratini amalga oshiradi;

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish Davlat tizimi hududiy va quyi tizimi va tegishli ob'ektlar tomonidan aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish shuningdek, Fuqaro muhofazasi bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish va ijrosini ta'minlashda tashkiliy-uslubiy yordam ko'rsatilishiga raxbarlik qiladi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadi.

2. a) Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish hamda Fuqaro muhofazasi bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish sohasida:

soha faoliyatining tahlilidan kelib chiqib, kelgusida FVDT va FM sohasini rivojlantirish va takomillashtirish istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqadi;

FVDT va FM sohasini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

Hudud, shahar va ob'ektlarning Fuqaro muhofazasi bo'yicha toifa darajasining belgilanishi bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

O'zbekiston Respublikasining Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish hamda Fuqaro muhofazasi bo'yicha Rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha Hukumat va hududiy komissiyalar faoliyatini tashkiliy - axborot jihatdan ta'minlaydi.

b) Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish Davlat tizimi va Fuqaro muhofazasi faoliyatini nazorat qilish va muvofiqlashtirish tadbirlarini rejalashtirish sohasida;

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish Davlat tizimini asosiy tadbirlar rejasini ishlab chiqadi hamda ijrosini nazorat qiladi;

ob'ektlarni barqarorligi va hayot faoliyati tizimini oshirish, hududlar va iqtisodiyot ob'ektlarini muhandislik himoyasi, aholi va hududlarni radiatsion, kimyoviy, biologik xavflardan muhofaza qilish hamda kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish chora tadbirlarini tashkil etish va olib borilishini nazorat qiladi;

tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish Davlat tizimi funksional va hududiy quyi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirishni tashkil etadi;

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish hamda Fuqaro muhofazasi sohasida o'ta muhim va toifalangan, potensial xavfli ob'ektlar faoliyatini nazorat qiladi;

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish Davlat tizimi hududiy va quyi tizimi va tegishli ob'ektlar tomonidan aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish shuningdek, Fuqaro muhofazasi to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga amal qilinishini nazorat qilish maqsadida reja asosida tekshiruvlarni tashkil etadi;

FVDT va Fuqaro muhofazasi bo'yicha mas'ul xizmatlar, davlat va xo'jalik boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, favqulodda vaziyatlarda aholini va hududlarni himoya qilish masalalarini hal etish vakolatiga kiradigan korxonalar va tashkilotlarning favqulodda vaziyatlardan xabardor qilish va oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha faoliyati yuzasidan ma'lumotlarni yig'adi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.

v) Toshqinlar va sel oqimlarini xavfsiz o'tkazib yuborishni ta'minlash, qor ko'chishi va ko'chkilar xavfini kamaytirish bo'yicha Hukumat komissiyasi faoliyatini tashkil etishni ta'minlash sohasida;

Toshqinga qarshi kurash komissiyasining navbatdagi va rejadan tashqari yig'ilishlariga aholini va hududlarni, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ob'ektlarini sel, toshqin va ko'chki xodisalaridan muhandislik muhofaza ishlarini tashkil etilishi yuzasidan materiallar tayyorlash;

Toshqinga qarshi kurash komissiyasiga aholini va hududlarni, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ob'ektlarini sel, toshqin va ko'chki xodisalaridan muhandislik muhofaza ishlarini tashkil etilishi;

hududiy yig'ma manzilli dasturlarni jamlaydi va umumlashtiradi, kelgusi yilda sel suv toshqinlarini xavfsiz o'tkazilishini ta'minlash yuzasidan xududiy yig'ma manzilli dasturlarni Toshqinga qarshi kurash komissiyasiga tasdiqlash uchun taqdim etadi;

gidrometeorologik va xavfli geologik jarayonlar xududlaridan aholini va iqtisodiyot ob'ektlarini ko'chirishni muvofiqlashtiradi va nazoratini olib boradi.

g) aholini va hududlarni radiatsion, kimyoviy va tibbiy-biologik muhofaza qilish sohasida aholini va hududlarni radiatsion, kimyoviy va tibbiy-biologik muhofaza qilishni tashkil etadi va nazorat qiladi;

radiatsion, kimyoviy va tibbiy-biologik muhofaza yo'nalishiga doir rahbarlik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqadi;

radiatsion, kimyoviy va tibbiy-biologik muhofaza yo'nalishiga doir tadbirlarni rejalashtiradi va ijrosini ta'minlaydi.

d) Kichik hajmli kemalar inspeksiyasi Respublika xududidagi suv havzalarida kichik hajmli kemalar va ular turadigan bazalardan (inshootlar) xavfsiz foydalanishda davlat nazoratini amalga oshirish sohasida;

suv havzalarida xavfsiz suzish sharoitlarini, vakolat doirasida fuqarolar xavfsizligini ta'minlash borasida kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanishni nazorat qiladi va texnik ko'rikdan o'tkazadi;

kichik hajmli kemalar bo'yicha normativ - huquqiy xujjatlarni ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

kichik hajmli kemalar va ular turadigan bazalar (inshootlar)dan foydalanish bo'yicha tartibga soluvchi huquqiy xujjatlar talablariga rioya qilinishi yuzasidan nazorat ishlarini tashkil etadi;

ro'yxatga olingan kichik hajmli kemalarni elektron bazasini shakllantiradi va kichik hajmli kemalarni boshqarish huquqini beruvchi guvohnomalar xisobini yuritadi;

kichik hajmli kemalar haydovchilarini o'qitishni tashkil etadi va nazoart qiladi.

kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish sohasida normativ-huquqiy xujjatlar talablariga rioya qilinishini belgilangan tartibda nazoratini olib borada;

suv havzalaridagi kichik hajmli kemalarda odamlar bilan bog'liq baxtsiz xodisalar va avariyaalar hisobini yuritadi;

sohaga oid bo'lgan texnik talablar va texnik reglamentlarni ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish talablariga rioya etilishini nazorat qiladi;

maxalliy sharoitlarni hisobga olgan holda, kichik hajmli kemalar inspeksiyasi nazoratidagi kemalarning quvvati va motorlar sonidan kelib chiqib, ulardan foydalanish tartibida suzish xududi bo'yicha qo'shimcha cheklovlarni belgilaydi;

kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish sohasida belgilangan tartibda xalqaro hamkorlik tadbirlarida ishtirok etadi va horijiy tajribalarni o'rgangan holda mos kelgan tabdirlarni amaliyotga qo'llash choralarni ko'radi;

normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash davomida o'z faoliyatini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadi.

y) Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish Davlat tizimi hududiy va quyi tizimi va tegishli ob'ektlar tomonidan aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish shuningdek, Fuqaro muhofazasi bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish va ijrosini ta'minlashda tashkiliy-uslubiy yordam ko'rsatilishiga raxbarlik qilish sohasida;

FVDT va Fuqaro muhofazasi yuzasidan xodimlarning murojaatlari bo'yicha ularga soha faoliyatiga oid tegishli huquqiy hujjatlarni topishda ko'maklashadi va zarur hollarda ularning qoidalari bo'yicha tushuntirishlar beradi;

soha yo'nalishi bo'yicha amaldagi normativ-huquqiy xujjatlarga kiritilgan o'zgartirishlar haqidagi ma'lumotlarni, ma'muriy amaliyotni va vazirlik rahbariyatining sohaga taalluqli bo'lgan ko'rsatmalarini xududiy tuzilmalarga yetkazadi.

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish Davlat tizimi hududiy va quyi tizimi, boshqaruv organlari va Fuqaro muhofazasi xizmatlari faoliyatini rejalashtirish va tashkillashtirishga oid vazirlik rahbariyatining

buyruqlari, farmoyishlari, direktivalari va boshqa raxbarlik xujjatlarini ishlab chiqadi;

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish Davlat tizimi hududiy va quyi tizimi, boshqaruv organlari va Fuqaro muhofazasi xizmatlarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha tayyorgarligini tekshirishni rejalashtiradi va amalga oshiradi.

Soha yo'nalishida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadi.